

## “SUNBULANING ILK SHANBASI” QISSASIDA RAMZIY TASVIR

**Farhod Nizomov Muso o‘g‘li**

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

[Farkhodnizomov22@gmail.com](mailto:Farkhodnizomov22@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning ijodiga e‘tibor qaratilgan. Muallifning uslubiy izlanishlari, badiiy asar yaratishda obraz, tasvir xilma-xilligi, uslubiy izlanishlari, ijodiy eksperimentlari, ramziy-majoziy ifoda, simvollarni qo‘llash mahorati, ijodkorning individual uslubi, badiiy konsepsiyasi, voqelikni bayon etish shakllari, personajlarning o‘zini o‘zi ruhiy yangilashga e‘tibor qaratishi kabi jihatlar “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi tahlili asosida yoritildi. Maqolada yurtimiz va xorij olimlarining adabiy-nazariy qarashlariga suyanildi. Asardan olingan parchalar (matnlar) asosida obrazlar ruhiy holati, majoziy voqea-hodisalar, ramziylik mavjud tushunchalarga sharh berildi. Asarda aks etgan yetakchi g‘oyalarga ilmiy-falsafiy jihatdan izohlar keltirildi. Muallifning voqea tasvirida tanlagan badiiy xronotop (vaqt va makon) masalasiga, qissada aks etgan peyzaj tasviri undagi simvollik ifodalarga misollar keltirilgan holda tahlil etildi. Matndagi obrazlar, roviyning nutq shakllariga mulohazalar bildirildi. Asar voqealari davomida muallif mahorat ila foydalangan she‘r, maktub, tuproq, maqol, o‘xshatish kabi – badiiy detallarga ilmiy mulohazalar bayon qilindi. Tahlil davomida muallifning badiiy topilmalari va qissaning bugungi o‘zbek nasrida tutgan o‘rniga asosli mulohazalar adabiyotshunos olimlarning nazariyalariga qiyoslangan holda bayon etildi.

**Kalit so‘zlar:** qissa, syujet, xronotop, ramz, majoz, obraz, uslub, detal, ekspirement.

### ABSTRACT

This article focuses on the work of the writer Abduqayum Yuldashev. Author’s stylistic researches, variety of images, metaphorical images in creating an artistic work, stylistic researches, creative experiments, symbolic-metaphorical image, skill of using symbols, artist’s individual style, artistic concept, forms of expressing reality, characters themselves Aspects such as focusing on spiritual renewal were laid out on the basis of the analysis of the story “The First Saturday of Sunbula”. The article relied on the literary and theoretical views of our country and foreign scientists. On the basis of fragments (texts) taken from the work, the mental state of the characters, metaphorical events, and existing concepts of symbolism were commented.

Scientific-philosophical explanations were given to the leading ideas reflected in the work. The issue of the artistic chronotope (time and space) chosen by the author in the description of the event, the image of the landscape reflected in the story was analyzed with examples of its symbolic expressions. In the story, comments were made on the images and the narrator's speech patterns. During the events of the work, scientific comments were made on artistic details such as poems, letters, soil, proverbs, similes, which the author skillfully used. During the analysis of the short story, artistic findings and the place of today's Uzbek prose were expressed.

**Key words:** story, subject, chronotope, symbol, trope, image, style, part, experiment.

## KIRISH

Bugungi o'zbek nasri ijodkorning yuksak badiiy tafakkuri, romantik ideali, original hayot lavhalarini ifodalashdagi mahorati natijasida yaratilgan qissalarga boy. Yozuvchining mukammal badiiy izlanishlari tufayli zamonaviy o'zbek qissachiligi tadrijida syujetga boy voqealar tasvirlangan asarlar yaratilmoqda. Mahoratli yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshev ana shunday ijodkorlardan biridir. Adibning "Sunbulaning ilk shanbasi" qissasi syujet va kompozitsion jihatidan o'ziga xos tuzilish va mazmunga ega.

An'anaviy yo'nalishda yozuvchi uslubiy ishlanishi natijasida yaratilgan ushbu asar ishq mavzusida. Unda ikki yoshning ancha yillar avval bo'lib o'tgan sevgi tarixi hikoya qilinadi. Muallif xolis kuzatuvchi sifatida asar qahramonlari ishtirok etadigan voqealarni bayon etar ekan ularni boricha, o'z holida oqqa tushiradi. Asosiy qahramon tahririyatda ishlaydigan yigit uning o'zini tutishi, xatti-harakatlari, gap-so'zlariga qarab, uni bilgan kishilar "Dovdir" degan laqab bilan atashadi. Samarqandlik yigit va turkistonlik bir qizning o'zlariga aniq, boshqalarga "intim" bo'lgan munosabatlari orqali muallif ishq atalmish ilohiy tuyg'uni bor go'zallikda ifoda etadi.

Qissada Abduqayum (muallifning o'zi – ta'kid F.N.) bevosita voqealar ishtirokchisi, badiiy qahramon sifatida qatnashadi. Bu jihat asarning yutug'i va mazmunan boyishiga katta hissa qo'shgan, negaki yozuvchi kutuzuvchi-qahramon roliga voqealar bo'layotgan joylar, personajlarni batafsil tasvirlaydi. Mutolaa davomida qissa voqealarini birovdan eshitgandek emas, balki kitobxon o'zining boshidan o'tgan, o'tayotgan voqeadek taassurot qoldiradi. Shu jihat asarning o'quvchanligini oshirgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu qissani tahlil etishda atoqli adabiyotshunos olimlar B. Karimov, M. Qo'chqorova, iste'dodli tadqiqotchi D. Hamroyevalarning nazariy qarashlari,

internet saytlarida mavzuimizga dahldor fikrlarga, yozuvchi, nosir, tanqidchi A. Muxtor mulohazalariga e'tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma'ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

Qissa boshida yigitning noodatiy harakatlari, toqatsizligi, nimagadir ilhaqligi, parishonxotirligi – barchasi mantiqan asarning keyingi sahifalarida oydinlashadi. Asarda hamxonasining gaplarini hayratlanib, yutoqib tinglaydigan, goh sharaqlab kulib, gohida boshqa bir mavzu haqida gapirib qoladigan yigitning barcha harakatlari o'quvchida qiziqish uyg'otadi. "Hamxonam chindanda badbaxt so'qirlik balosidan sekin-asta mosuvo bo'lib borayotgan baxtiyor dovdur misoli menga, xonadagi almisoqdan qolgan buyumlarga, derazaga, osmonga, stolida uyilib yotgan qog'ozlarga – go'yo bularning barchasini endi-endi ko'rib turganday – tashnalik, ixlos bilan tinmay tikilar; ba'zida derazaga kelib qo'ngan bitta pashsha uning hayojon vulqoni otilishiga bahona..." [6;6-bet] bo'lgan oshiq holatining asl sababi inson qalbidagi tug'yonlar bo'lganligi uchun asar quvvatli epizodlarga boy.

Abduqayum Yo'ldoshev badiiy so'zning kuchidan unumli foydalangan holda so'zni ramzga aylantiradi. Asar voqeligini ramzlar va turli timsollar vositasida tasvirlashga intiladi. Adib dunyoqarashining boyligi mazkur qissada mazmun-mohiyatga ega tushuncha, jumla, so'z o'yinlari, tabiiy voqea bayoni usulida yuzaga chiqadi. Asarning nomlanishida ham sirlilik ko'zga tashlanadi. Sunbula, shanba so'zlari zohiran hammaga ma'no jihatidan aniq. Lekin asardagi hayot tasvirida bu umuman boshqa ma'no kasb etadi. Sarlavhadagi "ilk" degan sifatlovchi so'z nom mohiyatni to'la ifodalashga xizmat qilgan. Toshkentdagi oliygohlardan birida tahsil oladigan o'zbek yigiti va turkistonlik bir qizning (yashash joyiga ko'ra ehtimol bilan millati qozoq bo'lishi mumkin) o'qish davomida paydo bo'lgan bir umrlik ishqning go'zal xotiralari, armonlari, go'zal kunlari, orzulari ushali shiga bir bahya qolgan ikki yoshning anduhlari, nasib etmagan visol voqealari parda ortida hikoya etilishi o'quvchini tafakkur qilishga undaydi.

Yigitdagi hadsiz ruhiy qiynoq va sabrsizlik faqat bir kunni, ya'ni har yili bir marta keladigan sunbula burjining ilk shanbasini kutish qiynog'i insonga bir yilga yetadigan kuch-quvvat bera olishi mumkinligi bu nomdan ko'zlangan mazmunni aniqlashtiradi. Ushrashuv faqat bir marta sarlavhada aytilgan paytda bo'ladi, ammo yigit har shanbadan nimadir kutadi, kimgadir intiq yashaydi. Ishxonasida haftasining oltinchi kuni ish yo'qligi u uchun ayni muddao. Ba'zida sherigining "shu oyda biror shanba ishlasak kerak" degan gapidan ranjishi oshiq yigit uchun ochiq shanba yaxshi. Yaqinlashib qolgan kundagi qahramonning holatini muallif shunday tasvirlaydi: "Hamxonam orziqib kutilgan kun arafasida mening gaplariimni eshitmay qolar, eshitsa-da, anglamas, biron ishga qo'l urolmas, qo'l urgan taqdirida ham boshlashga boshlar-u shu zahoti tashlab qo'yar, besaranjom ahvolda xonaga kirib chiqaverar,

go‘yoki bosib kelayotgan tutqanoqning belgilarini oldindan sezayotgan bemor yanglig‘ juda bezovta, shu bilan birga nedandir hayiqqan, cho‘chigan bir nimaga ishonib, goh ishonmay qolgan qolayotgan odam singari garangsib yurardi” [6; 9-bet] Donishmandlarning muhabbat go‘zal, ayniqsa, muhabbat arafasi degan gaplarida haqiqat bordek. Asar qahramonining holati ayni shundan dalolat bermoqda. Nasib etmagan, biroq unutilmagan hislar tug‘yoni yigitga shunday azoblar keltiradi. Demak, asar nomidagi har uchala so‘z ham ramziy ma‘no mavjud.

Sunbula burjining arifmetik davri yilning 24-avgustdan 23-sentabrgacha bo‘lgan davrni nazarda tutadi. Yoz faslining oxirgi oyi va kuzning birinchi oyiga mos keladigan bu davr asarda ikki yoshning uchrashuv davri hisoblanadi. Demak, sunbulaning ilk shanbasi avgust oyining so‘ngiga to‘g‘ri keladi. Shanba kuni esa arablar xalqlarida haftaning eng so‘nggi (dam olish) kuni hisoblanadi. Fors-tojiklarda ham shunday. Bizning turkiy xalqlarimiz esa hafta dushanbadan boshlanadi, shunda shanba haftaning oltinchi kuni, yakshanba esa yakuniy – yettinchi kuni hisoblanadi. Ko‘pgina davlatlarda shanba dam olish kuni hisoblanadi. Shanbaning o‘ziga xos tarixi ham bor. **“Shanba** (fors.) - Grigoriy kalendari bo‘yicha haftaning jumadan keyingi, yakshanbadan oldingi kuni. Islomdan ilgari arablarda shanba dastlab muqaddas kun sanalgan. Islom dinida juma ibodat va dam olish kuni deb qabul qilingach, Shanba haftaning boshlanish kuni bo‘lib qolgan. Boshqa kunlar shunga muvofiq ravishda nomlangan. Qadimgi yahudiylar an‘anasida shanba kuni muqaddas kun hisoblanadi. Ruslardagi “subbota” so‘zi yahudiylarning “shabbot” (diniy bayram) so‘zidan olingan”. [7]. Asqad Muxtorning mashhur “Hafta” she‘rida ham hafta kuni yakshanbadan boshlanadi. Shanba oxirgi kun bo‘lib, “yakshanbaning muovini”, “shanbaliklar” belgisi”, “teatr va ovga boradigan, ko‘p kitob o‘qiydigan”, “hurmatga loyiq kun” nomlari bilan tilga olinadi [1; 42-bet]. Haftaning yengil yumushlar biroz kamaygan kuni shu kunga to‘g‘ri keladi.

Qissaning muvaffaqiyatini ta‘minlagan jihatlardan biri – muallifning qahramon sifatida qatnashishi va voqealarni o‘z tilidan bayon etishida ko‘zga tashlanadi. Mavjud voqealar uchta xronotop (makon va zamon) oralig‘ida bayon etadi. Shartli tarzda ular: tahririyat, shifoxona, yigit va qizning uchrashuv joyi. Bu uch xronotopda oshiq yigitni har tomonlama kuzatish, uning xatti-harakatlarini baholash mumkin. Adabiyotshunos olim B. Karimov bu haqida shunday deydi: “Yozuvchi voqeani muvaffaqiyatli tanlangan bir necha makonda bayon etadi: tahririyat, ikkinchisi – shifoxona (bunda qahramonni bir nechta nigoh orqali kuzatish mumkin), yana biri – uchrashuv joyi. Garchi yigitning ichki dunyosiga dahldor bo‘lmasa ham, hikoyachi bir nechta xonimlar bilan aynan shu uchrashuv joyida “to‘qnash” keladi va syujetning jiddiy ravishta qiziqarli tus olishini ta‘minlaydi” [4; 25-bet]. Atoqli munaqqid bu uch voqea joyini asar syujetini, nihoyatda, qiziqarli bo‘lishini ta‘minlagan vosita sifatida baholaydi. Bu

qarashda haqiqat bor, albatta. Shu bilan birga, bu uch makon mohiyatan qahramonlarning kundalik yashashi, istaklari, orzulari ushaladigan go‘shadir.

Istiqlol davri hikoya va qissalarining badiiy-estetik yangilanishi haqida fikr bildirgan mahoratli adabiyotshunos olim M. Qo‘chqorova ilgari surgan: “Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalari bo‘lgan adabiy gallyutinatsiya, illyuziya singari tasvirlar, yangicha ramziy-psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan badiiy-romantik to‘qima obrazlar talqini ham uchraydi” [5; 127-bet] degan fikrlari tahlil etilayotgan qissada qo‘llangan raqam va turli an’anaviy timsollarga xosdir.

Badiiy adabiyotda obraz, timsol va ramz xususida ilmiy mulohazalar bildirib, bu tushunchalarni xorij adabiyotshunos olimlarining qarashlari bilan qiyoslanagan tadqiqotchi D. Hamroyeva shartli tarzda timsol, ramz, surat tushunchalarini birga qo‘laydi. Ramzning ikki xil usulda shakllanishini qayd etadi. “Birinchisi – aslida biror-bir asarning mustaqil obrazi sifatida mavjud bo‘lgan timsollar. Obrazning eng yetakchi xarakteri, ya’ni alohida ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatilgan jihati uning timsolga aylanishiga xizmat qiladi. Ikkinchisi – ilohiy mavjudotlar, hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va hakoza tabiatiga ko‘ra ajralib turadigan jihati timsolga aylanadi” [2; 73-bet]. Biz tahlil etayotgan qissada timsol yaratishning har ikki turiga oid misollar uchraydi.

## NATIJALAR

Yangi o‘quv yili boshlanadigan sunbula davri sevishgan ikki qalb uchun talabalikning ilhomli kunlarini, bir-birini ilk bor tanigan kunlari, birinchi muhabbat, birinchi quvonch, ilk armonlarni eslatadigan kun ham deyishimiz mumkin. Ularning ilk xushnud damlari ayni shu davrda bo‘lgan. Shuning uchun ham ular bu burj davri kelishini intizor kutishadi. Muallif asarda bu haqida izoh keltirmaydi. Uni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Yigit shifoxonada vafot etayotgan damda ham sherigi (yozuvchidan) nazarda tutilgan davrda o‘zining nomidan uchrashuvga chiqishini bot-bot yalinib so‘raydi. *Sunbularning ilk shanbasini* muallif uch ramziy ma’noda qo‘llagan bo‘lishi mumkin. *birinchidan*– shodlik kuni, tavba-tazarru kuni, sir-asrorlar ochiqilanadigan, bir so‘z bilan aytganda, diydor, visol kunidir; *ikkinchidan* – ikki yoshning hayotida sodir bo‘lgan muhim voqealar kuni; *uchinchidan* – qahramonlarning har ikkalasi yoki bittasi sunbula burchida tug‘ilganligini anglash mumkin. Uchinchi ma’noga quvvat sifatida asar voqealari, qahramonlar ruhiyatidagi holatlar, shu kunning ular uchun zarurlik darajasini aytishimiz mumkin. Bu burjda tug‘ilgan insonlar haqidagi ilmiy farazda: “Bu insonlar yoqimli, nozik, sevadigan, nima ish qiladigan bo‘lsa oxirgacha to‘liq mukammal qiladigan insonlar qatoriga kiradi. O‘zini tergap yuradi va shu bilan ko‘p yaxshi vaziyatlarni yo‘qotishi mumkin” [8], -deya izoh berilishi ham fikrimizni dalillaydi.

Muallif asarda tanlagan joylarni yashirin ma'noda ham ishlatadi. Ya'ni **tahririyat** – kundalik hayot kechirish, tirikchilik joyi; **shifoxona** – oshiq qalbiga malham beradigan, uni jisman sog'lom qilishga harakat qiladigan, yigit muhabbatini sinovdan o'tkazadigan makon; **uchrashuv joyi** – ikki yoshning ko'ngil malhamiga erishish, orzuqib kutilgan diydor, niyatlar ro'yobi amalga oshadigan sog'inch maskani sifatida ham baholash mumkin. Shu sababli bu uch makonni ramziy ma'noda qo'llangan deyishlikka asoslar topiladi.

Yigit vafot etgach, tahririyat bosh muharriri jurnalda ta'ziya e'lon qilish maqsadida u bilan bitta xonada ishlagan qahramon (Aptiqayim aka – oshiq yigit bu ismni shunday talaffuz qilardi) ga u haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini so'raydi. Ijod namunalari bo'lsa, uni ham bitta rasmi bilan katta sahifada e'lon qilishni aytadi. Shu sabab hamda bevaqt umri yakuniga yetgan hamxonasining pinhoni dardlariga qiziqishi ortgan roviy undan qolgan hamma narsani izlab topadi. Yigitning yaxshigina havaskor ijodkor ekanligi ma'lum bo'ladi. Undan bir qator she'rlar meros qolganligi oydinlashadi. Asar tahlilida ayni shu ijod namunalari ham muhim o'rin tutadi. Negaki yigit ruhiyati, bir paytlar yo'l qo'yilgan xatolar, afsus-nadomatlar qay darajada ekanligi shu yozma ishlar orqali yanada oydinlashadi. Uning ba'zi ijod namunalarida chinakam falsafiy ma'no, chuqur iztirob, yuksak badiiy tafakkur borligini ham sezish mumkin.

Nechuk asorat bu, sarkash, sargashta,

Nechuk jarohat bu, maddalar bitmas.

Nechuk talafot bu, ruhga payvasta,

Yetti yil yetmadi,

Yetmish yil yetmas. [6; 58-bet].

Mazmun va badiiyat jihatidan anchayin mukammal baytlarda she'r muallifining rost ruhiyati, teran tafakkur tarzi, og'ir ichki dardlari qalamga tushgan. Ilmi ba'dega ko'ra ta'did va takrir singari so'z takroriga asoslangan she'riy san'atlar uchraydigan mazkur baytda falsafiy ma'noni ham esdan chiqarmaslik kerak. Negaki, oshiqning dardi shu darajada og'irki uni unutishga "yetti" yo'q "yetmish" yil ham yetmaydi. Besh banddan iborat, muxammas shaklida yozilgan ushbu ijod namunasida naqarot qismida keltirilgan so'nggi ikki qator hamma bandda takrorlanadi. She'rning badiiy yuki raqamlar orqali ochiladi. Mumtoz adiblarimiz ijodi, xalq og'zaki ijodiga oid manbalarda yetti raqamiga ko'p bor murojaat etilgan. Bu raqamning diniy-tasavvufiy mohiyati, uning tasavvuf adabiyotida tutgan o'rni haqida atoqli olim Ibrohim Haqqul, adabiyotshunos S. Jumayevalar fikr bildirgan bo'lsa, uning turli g'ayriodatiy, sirli ma'nolari haqida mohir folklorshunos olim M. Jo'rayev ilmiy manbalarida ko'p ma'lumotlar uchraydi [3; 5-8-betlar]. Muallif yettini shartli tarzda "sehrli" raqamlar qatorida tilga oladi. Ushbu mulohazalarga tayangan holda qissada ismi noma'lum

qahramon tomonidan yozilgan she'rdagi yetti, uning ko'pli shakli yetmish raqamlari ramziy ma'noda qo'llanilgan. **Yetti va yetmish** – oshiqning ayriliq yillari, sog'inchning uzun damlari, qaror qabul qilishning murakkabligi, ishqdan arosatda qolgan oshiqning qalbi, ayriliqdan maddalar paydo bo'lgan jismi va xasta ruhiyatini ifoda etadi. Qo'llangan raqamlar sababli she'rning badiiy ta'sir quvvati kuchaygan.

Bugina emas oshiqning nasib etmagan mahbubasiga yozgan maktubida “Va yo Humo qushi boshimga do'nar, Va yo Humo qushi uchar boshimdan. Har oqshom xobgohim kemaga do'nar, Dengiz paydo bo'lar achchiq yoshimdan” [6; 58-bet], satrlaridagi humo timsoli – ma'shuqa ramzi, dengiz – oshqlikning darajasi, kuchini ifoda etadi. Yigit yoriga shunchalar mehrliki, suyuklisini “farishtam”, “iloham” sifatlashlari bilan erkalaydi. Bu o'xshatishda yorini Allohning go'zal, bexato yaratqilari qatorida ko'rishga arziydigan Inson deb ulug'laydi. Uni muloyim, betakror, haroratli so'zlar ila erkalaydi.

Qissada ma'shuqa tomonidan bitilgan, ammo o'z egasiga kelishga ulgurmagani maktub, asar nihoyasida roviy tomonidan ikki yoshning qabriga olib boriladigan tuproq, yuqorida ko'rilgan sarlavha, xavaskor shoirning ijod namunalarida she'rlarida so'zlar, muallif tanlagan vaqt va makon to'laligicha ramziy-majoziy tasvirga javob bo'la oladi. Tahlil davomida bu ramzlarning izohlari imkon qadar tadqiqotchi tomonidan izohlandi.

## MUHOKAMA

Asarda bir necha o'rinda “Izm” degan so'z uchraydi. Kitobxon avvaliga uning nima ekanligini anglashga qiynaladi. Ilk anglashma yigitning she'rlarida yuzaga chiqadi. Shaxs nomi bo'lmish ushbu so'z Turkistondan har yili sunbulaning ilk shanbasida keladigan qizning zurriyoti bo'lib chiqadi. Ammo uning otasi haqida yozilmaydi. Hikoyachi bir o'rinda shifoxonada yotgan hamxonasiga “Ismi juda g'alati... Izmjon, maboda o'zlariga tegishli emasmi? – deb bergan savolimga anchayin dudmalroq bo'lsa-da: - shunday bo'lishiyam mumkin edi, -deya javob qaytardi” [6; 51-bet]. Ushbu parchada yigitning cheksiz anduhi, ushalmagan orzular iztirobi, kitobxon uchun mavhum bir xatodan pushaymonlik belgilari seziladi. Bu nomni oshiqning yaxshi ko'rgan insoni takror-takror Izmjonim deb atasa, uydagilari Abduvali, yosh opa-singillari Valijon deb atashadi. Murg'ak bola ismining uch xil ko'rinishida ma'lum majoziy ma'no yashiringan. Ikki oshiq tomonidan aytiladigan nom oila a'zolari oldida aytilmaydi, aksincha, ular boshqa nomlar bilan atashadi. Bu ism tagmatnida ikki sevishgan qalbning quvonch-u iztiroblari, ehtimol, yuraklariga dalda beradigan yupanch, tasalli, ovunchlari ifoda etilgan. Buni ayolning har gal shu bolani yetaklab Toshkentga – uchrashuv joyiga kelishidan ham bilishimiz mumkin.

Asarda yana bir mubham voqelik bor. Bu qizning yigitga yozgan maktubidir. O‘z singlisiga Toshkentda tahririyatda ishlaydigan yigitga anchadan beri asrab yurgan maktubni olib borishi kerakligini iltimos qiladi. Ammo shu zahoti ko‘ziga yosh olib “Birdan opam xatni qo‘limdan yulib olib, mayda-mayda qilib yirtib tashladi. O‘rnidan turishga madori yetmaganidan: “Darrov o‘choqqa olib borib yoqib yubor! Aytganlarimni unut! Men alahlapman” [6; 70-bet], deb singlisiga murojaat qilgan qizning dardi, maktubda aks etmish voqelik, qizning nomani yirtganidan so‘ng madorsiz bo‘lishi, ancha vaqtdan buyon uni asrab kelayotganligi kabi o‘rinlar maktubning visol nasib etmagan oshiq-ma’shuqlar uchun, nihoyatda, qadrdonligini anglashimiz mumkin. Oq ko‘ngil singil esa xatni yoqmasdan, uni asrab qo‘yadi va bir safar yurtimizga kelganda o‘zi bilan olib kelib, yigitning hamxonasiga (qissada hikoyachiga) tutqazadi. O‘zi esa o‘qib chiqmagan bo‘ladi. Buni “...bir oq qog‘ozga yopishtirib chiqib mayda-mayda bo‘laklarni... o‘qib ko‘rayinmi, deb o‘yladim. Keyin... hamxonangiz xafa bo‘lar edb o‘yladim-da...” [6; 70-bet] deya ruhiy holatini bayon etadi. Hattoki hikoyachi ham ikki oshiqqa tegishli nomani qo‘liga olganda uni o‘qishga kuch topmaydi. Sherigi hayot vaqtlarida unga ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan voqealar haqida ko‘p savol bergan, yigitning pinhoni ijod namunalarini mutolaa qilgan, bir necha marta o‘rindoshlikka “sevgilisi” bilan sunbulaning shanbasida uchrashuvga chiqqan va “...o‘zgalar siri ohanrabosi man etilgan taom singari o‘ziga tortgani-tortgan deb...” [6; 67-bet] hayotiy iqrор etgan roviy ham xatni o‘qishga jur‘at topa olmaydi. Ehtimol, hikoyachi maktubdagi dard, unda aks etmish guhari sharifning azizligi, ketma-ket ko‘rgan tushlari sababli uni o‘qishga botina olmaydi. Maktubni mutolaa etolmagan ikki personajning ham yuksak andishasi, rostgo‘yligi, inson hislarini ardoqlay olish, omonatga xiyonat qilmaslik kabi kamyob fazilatlar egasi bo‘lganligini tadiqlaydi. Qolaversa, o‘qilmagan maktubdagi qandaydir sirlilik, qandaydir og‘ir dard, achchiq haqiqat bois bu maktubni o‘qish ularga og‘irlik qiladi.

Tirikliklarning eng so‘nggi manziligi tuproqdir. Yozuvchi asar yakunini ham majoziylik asosida nihoyalaydi. Maktub o‘z egasiga yetib borishi kerak, shu sababli Samarqandga – yigit dafn etilgan joyga borib, xatni tuproqqa topshiradi. Hamda uning qabridan bir siqim tuproq olib, Turkistonga – juvonning qabriga sochishi, uning ham makonidan bir siqim tuproq olib, hamxonasining qabriga sochishini niyat qiladi. Bu orqali erta xazon bo‘lgan ikki oshiqning ruhini shod etishni niyat qilishi bilan tugaydi. [6; 73-bet] Voqealar bayoni davomida yozuvchi aytib o‘tgan maktub, tuproq kabi tushunchalarda ham ma‘lum ma‘noda sirlilik mujassam. Bunga marhumlarni ruhini bezovta etmaslik, birovning omonati, tuyg‘ularning muqaddasligi, inson qadr-qimmatini, har ishga Allohning nazari tushib turishligi, taqdiri ilohiyning mavjudligi kabi masalalar ayni shu ikki badiiy detal – xat va tuproq vositalarida ochib beriladi.



## XULOSA

Qissada yigit va qizning muhabbati haqqoniy tasvirlangan. Yolg'on, soxta voqelik, ortiqcha badiiy to'qima uchramaydi. Yigitning yuqorida keltirilgan ruhiy holatlari, shanba kuni kelagandagi o'zini tutishlari, shifoxonadagi xatti-harakatlari, qizning esa kelishilgan kunda olis Turkistondan poytaxtga kelishi, ba'zan yoshi keksa qaynotasi, ba'zan eri va singlisini zo'rg'a ko'ndirib turli bahonalar bilan tashrif buyurishi, ba'zan kutgan insonini ko'ra olmasa ikki-uch martalab kelishilgan uchrashuv joyini aylanishi, atrofga alanglab so'zsiz kimnidir izlashlarida bu jihat seziladi. E'tiborlisi shuki, bu uchrashuv uchun qiz (yigit ham) yil davomida harakat qiladi. Ruhan kuch to'playdi. Sabablar izlaydi. Shuncha intiqlik bilan Toshkentga kelgan ayol kutgan insoni bilan gaplashish, dardlashishga imkon topmaydi. Doim yonida u bilan kelgan kishidan gap eshitadi (bir marta eri sochlaridan tortib sudrab ketgan edi). Ayol bularga achinmaydi. Unga birgina narsa kifoya: sevganing nigohi. Uning uchun uzoqdan bo'lsa ham, yonidan bir marta o'tib bo'lsa ham yorini ko'rsa bo'ldi. Bu voqelikning o'ziyoq ular uchun muhabbat, sevgining qanchalar qadrli tuyg'u ekanligini anglatadi. Bu kabi jihatlar bugungi kun uchun nihayatda muhimdir. Chunki bugun sevgini o'yin qiladigan, uni buyuk ne'mat ekanligini tushunmaydigan, yuzaki oshiq-ma'shuqlar ko'paygan zamonda ishq ahllari muallif asaridan muhabbat nima? Chin sevgi nima? degan savollarga javob topa oladi.

Qissada ikki inson baxti, boshidan o'tgan voqealari, tortgan azoblarining badiiy manzarasi chizilgan. Tasvir davomida muallif ko'pgina hayotiy topilmalardan ishlatadi. Ramziy va majoziy tasvirdan unumli foydalanadi. Voqeani individual bir nechta xronotopda bayon etadi. Asar hushyorlikni unutmaslik, inson har bir xatti-harakatini o'ylab bajarishi lozimligi, yaxshilik va yomonlikning ertaga javobi tayin ekanligiga asar qahramonlari misolida ishora qiladi. Asar mutolaasi davomida kitobxon chalg'imagaydi, hayot mantig'idan uzoqlashib ketmaydi. Voqealar birovning hayotidan o'tgan bir ertak sifatida emas, aksincha, har bir insonning o'z boshidan o'tadigan kechmishday taassurot qoldiradi. Bu kabi jihatlar yozuvchining chinakam mahoratidan dalolat beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent: "Sharq", 2015. 42-bet.
2. Hamroyeva D. Obraz, timsol, ramz// "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent: 2008. 4-son, 73-bet.
3. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar. Toshkent: "Fan" 1991. 5-8- betlar.

4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. 25-bet.
5. Qo‘chqorova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzillari. Monografiya. Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2011. 127-bet.
6. Yo‘ldoshev A. Ishq afsunlari: qissalar// “Sunbulaning ilk shanbasi”, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. 6-bet.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shanba>
8. <https://tushlar.ru/sumbula-burji-24-8-23-9-erkak-va-ayollar-harakterlari-haqida-ma-lumot/>